
SAYXUNOBOD TAJRIBASI ASOSIDA OQTEPA MAHALLASIDA AMALGA OSHIRLAYOTGAN ISHLAR O'RGANILDI



Avval xabar berganimizdek, Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev bugun Oqtepa mahallasida bo'ldi. Mahalla fuqarolari xonadonlarida bo'lgan tuman rahbari aholini qiynayotgan muammolar bilan qiziqdi. Qolaversa, "Sayxunobod tajribasi" asosida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Xususan tuman rahbari Ma'rufjon Xaitmatovning xonadonida bo'lib, ushbu oilaning yashash tarzi va daromad manbai bilan qiziqdi. Ma'rufjon Xaitmatov tomorqasidagi 3-sotixli issiqxonadan, 4 bosh qo'y hamda 20 dona parrandani parvarishlab, daromad topayotganligi ma'lum bo'ldi.

Nayman ko'chasi 36-uyda yashovchi Malika Pozilovga esa 1.5 sotix issiqxona hamda parrandachilik yo'nalishida 30 dona parranda olib berilgan.

Ushbu oilalarning yashash sharoiti bilan tanishgan tuman hokimi tomonidan tegishli tavsiyalar berildi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2024-07-17 23:01:23